

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISTLIK-QURILISH INSTITUTI

“QURILISH” *fakulteti*

“BINOLAR VA INSHOOTLAR QURILISHI” *kafedra*

JAMOLIDDINOV IZZATILLOXON TOXIRJON O'G'LI

“FARG'ONA VILOYATI MARG'ILON SHAHRIDAGI ERKIN VOHIDOV
MAVJUD ISTIROXAT BOG'INI QAYTA ME'MORIY VA QURILISHINI
REJALASHTIRISH”

5341000 «Qishloq hududlarini arxitektura-loyihaviy tashkil etish»

Bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Kafedra mudiri: dots.S.Abduraxmonov_____

Ilmiy rahbar: k.o'q. P.Axmedov_____

“ _____ ” 2018 y

Namangan 2018

Kirish.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning
2016-yil 7-dekabrdagi "O'zbekiston xalq shoiri
Erkin Vohidov tavalludining 80-yilligini
nishonlash to'g'risida"gi qarori ga muvofiq

Sh.Mirziyoyev

O'zbek adabiyotining yirik vakili ijodiy merosini keng o'rganish, uning mazmun-mohiyatini yoshlarga yetkazish borasida O'zbekiston bo'ylab Erkin Vohidovning 80 yillik yubileyi keng nishonlanadi. Marg'ilon shahridagi madaniyat va istirohat bog'iga Erkin Vohidov nomi berilib, qayta rekonstruksiya qilinadi. Farg'ona viloyatiga tashrifi doirasida ushbu bog' bilan tanishib, turli ko'rsatmalarni amalga oshirish mo'ljallandi, istirohat bog'ining maydoni 9 gektardan 16 gektarga yetkazildi. Bog'ning kirish qismida yozuvchi-ijodkorlar xiyoboni tashkil etish, unga Erkin Vohidovning haykalini o'rnatish ko'zda tutilgan.

Turli tadbirlar o'tkaziladigan amfiteatr, osh markazi va boshqa infratuzilma obyektlari barpo etish belgilangan. Erkin Vohidov nomidagi yosh ijodkorlar maktabi ochiladi. Bundan tashqari, bog'da turli attraksionlar o'rnatilib, bir necha choyxona aholiga xizmat ko'rsatadi. Istirohat bog'iga turli mevali va manzarali daraxtlar, gullar ekiladi.

Qahramon shoir nomi bilan ataladigan ushbu bog' har tomonlama mukammal bo'lishi, uni yoshlar ma'naviyatini yuksaltiradigan maskanga aylantirish, xiyobonga Erkin Vohidovning eng sara she'rlaridan namunalar yozilgan lavhalar o'rnatish zarurligini ta'kidladi. Bu yerga keluvchilar Erkin Vohidov she'rlaridan bahramand bo'lib, ma'naviy olamini yanada boyitib olish rajalari yo'lga qo'yiladi.

O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning o'zlikni anglash, milliy g'urur-iftixor tuyg'ulari yuksak pardalarda tarannum etilgan asarlari har birimizni tinchlik-xotirjamlikni qadrlashga, chin insoniy

fazilatlar sohibi bo'lishga undaydi. E.Vohidov "Tong nafasi", "Qo'shig'im sizga", "Aql va yurak", "Mening yulduzim", "Yoshlik devoni", "Tirik sayyoralar", "Sharqiy qirg'oq", "Kelajakka maktub" kabi she'riy to'plamlari, "Nido", "Quyosh maskani", "Ruhlar isyoni", "Ko'hinur" kabi dostonlari, "Oltin devor", "Istanbul fojiasi" singari sahna asarlari, "So'z latofati" risolasi, jahon adabiyotining mumtoz namoyandalari merosidan qilgan tarjimalari bilan o'ziga xos ijodiy maktab yaratgan.

Istirohat bog'iga ekiladigan har daraxtga alohida e'tibor qaratish, zamonaviy attraksionlar o'rnatish, uni zamonaviy so'lim maskanlardan biriga aylantirish yuzasidan mutasaddilarga ko'rsatmalar berildi. Farg'ona viloyati tuman va shaharlari markazlarini zamonaviy shaharsozlik talablari asosida rivojlantirish bosh rejasi, Marg'ilonda turizmni rivojlantirish dasturi, amalga oshiriladigan loyihalar taqdimoti dastur doirasida uy-joy qurish, sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya tizimlari, ijtimoiy soha infratuzilmasini yanada rivojlantirish sohalarida o'nlab loyihalarni amalga oshirish rejalashtiriladi.

Marg'ilonda hunarmandlar markazini tashkil etish, soha xodimlari uchun qulay zarur shart-sharoitlar yaratish, boshqa loyihalarni ham yanada mukammallashtirish, qurilish ishlarini yo'lga qo'yish lozim.

Ushbu mavzuni dolzarbligi dvlatimiz raxbari Shavkat Mirziyoyevning axoli turmush tarzini yanada yaxshilash va Marg'ilon shahrini yanada rivojlantirish va ushbu bog'ga buyuk adibimiz Erkin Voxidov nomini berilishi mazkur bog'ni yangitdan qayta ta'mirlash muxim vazifa ekanligini o'z oldimga maqsad qilib oldim.

ARXITEKTURA-QURILISH QISMI

BO‘LIMI

Rahbar:

Axmedov P.

Diplomant:

Jamoliddinov I.


Marg'ilon shahridagi yangi Erkin Vohidov nomli madaniyat va istiroxat bog'i loyihasi.

1. Farg'ona viloyati tarixi, iqlimi haqida ma'lumot.

Farg'ona viloyati O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat 1938 yil 15-yanvarda tashkil etilgan. Respublikaning sharqida, Farg'ona vodiysining janubida joylashgan. Shimoldan Namangan, Andijon viloyatlari, janub va sharqdan Qirg'iziston, g'arbdan Tojikiston Respublikalari bilan chegaradosh. Maydoni 6,8 ming km². Aholisi 3,317 ming kishi 2016. Tarkibida 15 tuman, 9 shahar Beshariq, Marg'ilon, Rishton, Farg'ona, Yaypan, Quva, Quvasoy, Qo'qon, Hamza), 10 shaharcha, 164 qishloq fuqarolari yig'ini bor 2015 yil Markazi Farg'ona shahri.

Farg'ona viloyati O'zbekistonning qadimgi madaniyat o'choqlaridan biri. Viloyat hududida topilgan tosh davri manzilgoxlari va qoyatoshlariga solingan suratlar vodiya odamlar eng qadimgi davrlardan beri yashab kelganliklaridan darak beradi. Farg'ona viloyatining tosh davri yodgorliklarini 1954 yil A.P. Okladnikov rahbarligidagi arxeologiya otryadi o'rgangan. Vodiyning sharqiy qismidagi Qayroqqum, Xo'jag'or va Uchqo'rg'on makonlaridan mustye davriga oid tosh qurollar topildi. Vodiyning g'arbiy qismidagi qadimgi tosh davri madaniyatiga oid manzilgoxlar mustye davridagi Qal'acha, Jarqo'ton va Qapchig'ay tosh qurollar ishlash ustaxonalari topilib o'rganildi. 1958 yil birinchi marta Markaziy Farg'onadan mezolit davriga oid mikrolit tosh qurollari topildi. Shuningdek, Markaziy Farg'onadagi Uzunko'l va Tayloqko'l atroflaridan mezolit va neolitdavrlariga oid 24 ta manzilgoh borligi aniqlandi 1965 yil So'x vohasidagi 28 g'or va ungurlar (Selungur, Eshma, Obishir, Sur, Bel, Zim, Ovikambar, Bog'ishim va boshqalar) ro'yxatga olindi. Obishir g'orlaridagi madaniy qatlam yaxshi saklangan. G'orlarni qazish jarayonida mezolit davriga oid tosh qurollar, xayvon suyaklari topilgan. Bular o'sha davr turmushini o'rganish imkonini beradi. 1967 va 1969 1970 yillarda Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeyi xodimlari mezolit va neolit davrlariga oid 35 ta manzilgohtopdilar. Farg'ona viloyatining arxeologik yodgorliklarini o'rganishda Katta Farg'ona kanalining qazilishi muhim ahamiyatga

ega bo'ldi. Kanalni qazish jarayonida jez davri, quldorlik va zamindorlik jamiyatlariga oid yodgorliklar topildi va tekshirildi. Quva va Toshloq tumanlari o'rtasidagi Akbarobod qishlog'ida jez davriga oid manzilgoh, Marg'ilonsoyning chap sohilida Oqtom qabristoni bo'lganligi aniqlandi. Farg'ona viloyatining Quva tumanida quldorlik davriga oid Taxyontepa, Farg'ona shahrida Simtepa (Chimtepa) kabi yodgorliklar topib o'rganilgan. Ayniqsa, Quva shahridagi miloddan avvalgi 5-asr va o'rta asr boshlariga oid topilmalar yaxshi tekshirilgan. 10-11 asrlarga doir tarixiy manbalarda bu shahar obodligi va kattaligi jihatidan vodiya Axsikatdan so'ng eng yirik shahar deb qayd qilingan. Arxeologik materiallar Marg'ilon shahri 10 asrda katta qishloq bo'lib, 11 12 asrlarda shaharga aylanganligini, Rishton esa 10-asrda katta shahar bo'lsa ham, 11 12 asrlarga kelib qishloq qiyofasiga kirib qolganligini isbotlaydi. O'troq dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullangan Chust madaniyatiga oid manzilgohlardan topilgan yodgorliklar Farg'ona vodiysini o'rganishda muhimdir. U yerda ishlab chiqarish kuchlari va xo'jalikning taraqqiyoti jez davrining oxirida dehqonchilik qabilalarining ijtimoiy tuzumida o'zgarish yuz berishiga, natijada ibtidoiy tartiblar tugab jamiyatdagi tabaqalanishga olib kelgan. Ro'zg'or anjomlarida xususiy mulkchilik kurtaklari ko'zga tashlanadi. Arxeologik tekshirishlar natijasi Farg'ona viloyatida qadimdan odamlar yashab, ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanganligidan, kishilik jamiyatining keyingi bosqichlarida esa madaniyat rivojlana boshlaganligidan dalolat beradi.



1-rasm. Farg'ona viloyatining hududiy bo'linishi

1. Bag'dod; 2. Beshariq; 3. Buvayda; 4. Dang'ara; 5. Yozyovon; 6. Oltiariq;
7. Qo'shtepa; 8. Rishton; 9. So'x; 10. Toshloq; 11. Uchko'prik; 12. Farg'ona; 13.
Furqat; 14. O'zbekiston; 15. Quva tumanlari mavjud;

Farg'ona viloyati iqlimi Keskin continental Yoz oylarida havo harorati judaya mo'tadil salqi bo'ladi Geografik kordinatlari 40°27' 16 N Shimoliy kenglik, 73°42' 29 E Sharqiy uzunlikda. Dengizdan 490 metr balandlikda.

2. Marg'ilon shahari tarixi va umumiy ma'lumot.

Marg'ilon nomlari Margilan, Margelan O'zbekiston shaharlaridan biri. Farg'ona viloyatida joylashgan. Aholisi 190,2 ming kishi. Shaharda 30 dan artiq millat va elatlar istiqomat qiladi. Jumladan, 91,9 % o'zbeklar, 3,1 % ruslar, 1,4 % tatarlar. Shahar iqlimi kontinental, qish yumshoq, yoz esa juda issiq keladi. Geografik kordinatlari 40°28' 16 N Shimoliy kenglik, 71°43' 29 E Sharqiy uzunlikda. Dengizdan 487 metr balandlikda. Marg'ilon shahri ming yillardan beri o'zining usta-hunarmandlari, olimu fuzalolari bilan dunyoga mashhurdir. 2007-

yil YUNESKO qaroriga binoan shahrning 2000 yillik tantanalari o'tkaziladi. Qadimiy Xitoy yozma manbalarida Dovonda Lar gi shahri keltirilgan, Xitoy olimlari ilmiy ishlarida bu shahar Hozirgi Marg'ilon shahriga tog'ri keladi va bu shahar 2700 yil tarixga ega ekanligini isbotlaydi.

Afsonalarga ko'ra, Marg'ilonga Iskandar Zulqarnayn tomonidan asos solingan. Aytishlaricha Zulqarnayn ovqatlangani to'htaganda, unga Murg'ya'ni tovuq va Nonberilgan ekan va shundan Murg'inon bo'lib shaharni nomi kelib chiqqan ekan. Lekin boshqa ishonchliroq ma'lumotlarga qaraganda Marg'ilon Miloddan Keyingi IX asrda Buyuk Ipak Yo'lidagi muhim shahrlardan bo'lgan. XV asrda yashab o'tkan vatandoshimiz va Boburiylar imperiyasining asoschisi Bobur o'zinig Boburnomakitobida «ko'b yahshi narsalarga boy shahar. Uning Shaftolilari va Anorlari ham ko'b yahshidur» deb yozgan. Va uning aytishicha «Samarqand ning va Toshkent ning eng ko'zga ko'ringan bezori va urishqoqlari Marg'ilonliklardir». 1710-1876 yillarda Qo'qon xonligi davrida shahar Marg'ilon bekligi markazi, xonlikning muhim strategik ahamiyatga molik kenti bo'lgan. Marg'ilon Chor Rossiyasi hukmronligi davrida Turkiston guberniyasi takibidagi, Farg'ona viloyati, Marg'ilon uezdi markazi bo'lgan. Shaharda hamma zamonlarda ham hunarmandchilik va savdogarlik yuksak darajada rivojlangani ma'lum. Shuningdek, Marg'ilonni "Sunduqul orifiyn" (Oriflar sandig'i) deydilar. Bunga sabab esa bu shahardan juda ko'p olimu fuzalo, oriflarning chiqqanidir. Marg'ilon savdogarlari O'rta Osiyo savdo-sotiq ishlarida muhim rol o'ynaganlar va Sovet davrida bu shaharni odamlarini qonun bilan chiqishmovchiliklari bo'lgan.

Yana shaharda, O'zbekistondagi eng yirik Shoi ishlab chiqaradigan Yodgorlik Shoi Korhonasi va Turon Shoisi Korhonalari joylashgan. Farg'ona Vodiysiga shoi to'qish qachon kelganligi noma'lum, lekin eski zamonlardan ma'lumki Marg'ilon bu sohada juda mashhur bo'lgan.

Marg'ilon Farg'ona viloyatidagi shahar Farg'ona vodiysining janubiy qismida, Oloy tog'lari etagida joylashgan. Farg'ona shahridan 10-12 km shimolda,

475 m balandlikda. Yaqin tim stansiyasi Marg`ilon 4 km. Iyulning o`rtacha temperaturasi 25-26°, yanvarniki 3,5°. Marg`ilonning janubiy chekkasidan Farg`ona kanali va shahar ichidan Marg`ilonsoy oqib o`tadi. Aholisi 183,2 ming kishi 2002-1973 yilda 117 ming , 1939 yilda 46 ming , 1897 yilda 36 ming kishini tashkil etgan), asosan, o`zbeklar 89,3% shuningdek, rus, tatar va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Marg`ilondan 3-4 km janubroqda joylashgan Yangi Marg`ilon (sobiq Gorchakova) shaharchasi Marg`ilon shahar Kengashiga qaraydi. Marg`lon to`g`risidagi dastlabki yozma ma`lumotlar 10-asrga taalluqli. O`sha davrlarda shahar "Marg`inon" deb atalgan va keyinchalik har ikki nomi ham ishlatilib kelingan. Marg`ilon nomining kelib chiqishi haqida aniq bir ma`lumot yo`q. Ayrim toponimistlar "marg`"- "maysazor", "o`tzor" dan deb taxmin qiladilar. Marg`lon "murg`" va "yunon" so`zlaridan degan mahalliy to`qima rivoyat ham bor. Ibratniig "Tarixi Farg`ona" qo`lyozma asarida yozilishicha, shaharga 883 yilda asos solingan. Arxeologik topilmalar Marg`ilon o`rnida milod boshlaridan aholi yashab kelayotganligini, 10-asrda u katta qishloq bo`lganligini, 11-12 asrlarda esa shaharga aylanganligi tasdiqlamoqda. V. V. Bartold "Mo`g`ullar istilosi davrida Turkiston" asarida Qoraxoniylar davrida ham Marg`ilon viloyatning bosh shahri hisoblanganligini qayd etgan. "Boburnoma" da Marg`ilon Farg`onadagi 8 ta shahardan biri ekanligi, shaharning obodligi, shirin mevalari haqida so`z yuritilib, uning "donai kalon" deb ataluvchi anori va "subhoniyy" navli o`rigi maqtaladi. Shaharning qadimiy qismida o`tkazilgan arxeologik qazilmalar natijasida Marg`ilonga bundan 2 ming yil avval asos solinganligi aniqlandi. Mahalliy ma`lumotlar bo`yicha shaharning 12 darvozasi bo`lgan. Buyuk ipak yo`lida joylashgan Marg`ilon aholisi qadimdan atlas to`qish bilan shug`ullanib kelgan va shu tariqa uni jahonga mashhur qilgan. Marg`ilonning shoyi matolari Misr, Eron va Yunoniston, Qashg`ar savdogarlari tomonidan ko`plab harid qilingan. Shuningdek, Marg`ilonda do`ppido`zlik, misgarlik rivojlangan, shaharda vaqt-vaqti bilan tanga ham zarb qilingan. Shahar turli davrlarda Temuriylar, Shayboniylar davlatlari, keyingi davrda Qo`qon xonligi tarkibida bo`lgan. 1875 yilda rus qo`shinlari

tomonidan bosib olingan. Marg'ilonda oq podsho ma'murlari zulmiga qarshi qaratilgan, tarixda ma'lum bo'lgan "Po'latxon qo'zg'oloni" 1873-1876 yilda mahalliy aholini Rossiyadagi front orti ishlariga zo'rlab olib ketilishiga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'oloni 1916 yilda bo'lib o'tgan. Marg'ilon 1876-1926 yillarda Farg'ona viloyatining uyezd shahri bo'lgan, so'ngra Farg'ona okrugi miqyosidagi shaharga aylantirilgan. 1927 yilda Marg'ilonda birinchi pillakashlik fabrikasini qurishga kirishildi. Bundan tashqari, ikkita elektr stansiyasi, bosmaxona, mexanika ustaxonasi, non va limonad zavodlari bor edi. Keyinroq mexanizatsiyalashgan ko'ncilik zavodi, taxta tilish sexi, poyabzal fabrikasi foydalanishga topshirildi. Shoyi to'qish artellari yiriklashtirildi, bir qancha yangi hunarmandchilik korxonalari ishga tushirildi. 1963 yilda badiiy gazlamalar ishlab chiqaruvchi hunarmandchilik artellari negizida "Atlas" firmasi vujudga keldi 1976 yildan "Atlas" ishlab chiqarish birlashmasi. Shaharda 20 ga yaqin sanoat, 8 avtotransport korxonalari, 17 qurilish tashkiloti bor 2002 yilda "Turonshoyi", Alisher Navoiy nomli ipak gazlamalar va mexanika, "Farg'onasut", yog'ochsozlik korxonalari mavjud. "Do'stlik- Marg'ilon" qo'shma korxonasi, 600 dan ortiq kichik va xususiy korxona, markaziy dehqon bozori, "Marg'ilon" mehmonxonasi, avtobuslar shohbekati, savdo, madaniy va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari ishlab turibdi. Marg'ilonda hunarmandchilik ayniqsa, do'ppido'zlik, tandirchilik, misgarlik rivojlangan. 34 umumiy ta'lim maktabi, "Istiqbol" gimnaziyasi, milliy xunarmandchilik va aniq fanlar litseylari mavjud bo'lib, ularda 200 o'quvchi ta'lim oladi. 2 musiqa, 2 kasb-hunar maktabi, qurilish, tijorat, hisob-kredit, tibbiyot va pedagogika kollejlari, maxsus maktab, mehribonlik uyi, "Shoyi" kompaniyasining ipakchilik faoliyat ko'rsatmoqda.

12 jamoat va bolalar kutubxonasi 168 ming kitob, 6 madaniyat uyi jumladan, markaziy madaniyat uyi, Y. Oxunboboyev memorial muzeyi, madaniyat va san'at muzeyi, "Nurxon" xalq teatri, madaniyat va istirohat bog'i bor. "Al Hidoya" xotira majmui mavjud. Shahar televideniyesi va radioeshittirishlari qo'mitasi ishlab turibdi.

Marg'ilon vodiydagi yirik shaharlar bilan avtomobil yo'llari orqali bog'langan. "Marg'ilon haqiqati", "Turon shoyisi" gazlamalari chiqarilmoqda. Shaharda 1037 o'ringa mo'ljallangan kasalxonalar, 2 tibbiyot sanitariya qismi, Salomatlik markazi, tez tibbiy yordam markazi va boshqa tibbiy muassasalarda 422 vrach, 1599 o'rta tibbiy xodim xizmat qiladi. "Atlaschi" va "Turon" stadionlari, 33 sport zali, ko'plab voleybol, basketbol va futbol maydonlari, 3 bolalar va yoshlar sport maktabi bor. 56 ta jismoniy tarbiya jamoasida 43 ming nafardan ziyod yoshlar shug'ullanmoqda. Me'moriy yodgorliklardan Pir Siddiq majmui "Kaptarlik", 18-asr o'rtalari, Xo'ja Mag'iz maqbarasi 18-asrning birinchi yarmi, Chokar, Toronbozor masjidilari 20 asr boshlari, Saidahmad Xoja Eshon madrasasi 19-asr oxiri va boshqa saqlanib qolgan. Marg'ilonda buyuk alloma Burhoniddin Marg'inoniy yashab o'tgan, shoira Uvaysiy Jahon Otin tug'ilgan va boshqa bir qancha mashhur kishilar ijod qilganlar.

3. Me'moriy - rejaviy yechim.

Farg'ona viloyati Marg'ilon shahridagi Ahmad Yassaviy ko'chasi yonida joylashgan Erkin Vohidov nomli madaniyat va istirohat bog'i hududi 16 gektar maydonni egallaydi. Ushbu hudud Loyihasidan asosiy maqsad zamonaviy bog' hududiga uyg'unlashtirilgan holda yahlit kompozitsion yechim taklif etishdir.

Zamonaviy shahardagi park o'ziga – shahar muhitini sog'lomlashtirish funksiyasini oluvchi, shahar landshaftini boyituvchi, tabiatni qo'riqlash va aholining dam olishiga yordam beruvchi ko'kalamzor makonlar tizimining eng muhim elementidir. Ommaviy ko'p funktsional park tipi hududning yetarlicha kattaligida shahar aholisining tabiiy dam olishini tashkil etish tizimida asosiy ob'ekt bo'lib qoladi. Bunday parklar hududini qismlarga bo'lish maqsadga muvofiqdir:

Ommaviy tadbirlar - 5-7%

Bolalar dam olishi – 5-10 %

Fizkultura sog'lomlashtirish – 10-20 %

Madaniy-oqartuv tadbirlari - 3-8 %

Tinch dam olish – 50-75%


Xo'jalik – 1-5 %

Ommaviy tadbirlar qismi – parkning asosiy kirish qismi yaqinida joylashadi. Teatr, kino, o'yin maydonchasi, attraktsionlar, festival maydoni, ommaviy o'yinlar va boshqalar.

Bolalar dam olish qismi – alohida joylashtirish, parkka kirish joyi yaqinida, 1 dan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar qobiliyatlarini rivojlantiruvchi o'yin maydonchalari, turli inshootlarni o'z ichiga oladi.

Fizkultura sog'lomlashtirish inshootlari – tekis relefli, suv havzasi bor ochiq joylarda iloji boricha bitta majmuaga birlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Madaniy oqartuv qismi - park hududi bo'yicha erkin joylashtiriladi, lektoriylar, kichik ko'rgazma pavilonlari va kafe, o'quv zali, havaskorlik mashg'ulotlari uchun xonalarni o'z ichiga oladi.



1-rasm

Ko'p funktsional parklarni zonalashtirish misollari: (1-rasm)

- I* - ommaviy tadbirlar qismi,
- II* - bolalar dam olish qismi,
- III* – fizkultura sog'lomlashtirish inshootlari,
- IV*- madaniy oqartuv qismi,

V- tinch dam olish qismi,

VI -xo'jalik qismi.

Tinch dam olish qismi – parkning katta qismini egallaydi va tabiiy peyzajlar bilan xarakterlidir. Bu yerda har qanday inshootlar qurish, kichik me'moriy shakllar-trelyaj, bog' mebelidan tashqari man qilinadi.

Xo'jalik qismi – parkning chekka qismida, tutash ko'chaga o'zining chiqish joyi bilan joylashadi. Asbob-uskunalar, park jihozlari, omborlari, yuklarni tushirish maydonchalarini o'z ichiga oladi. parklar qoshida avtomobil to'xtash joylari va keluvchilar uchun gigiena punktlarini ko'zda tutish lozim. Ko'p funktsiyali park tabiiy balansini saqlash uchun uning o'lchamlari 20 gektar dan kichik bo'lmasligi kerak.

Masalan, O'zbekistonning eng kata parklardan biri Toshkentdagi – “O'zbekiston milliy bog'i”. Uning o'lchami 70 gektar dan katta, lekin Toshkentdagi boshqa va O'zbekiston shaharlaridagi parklar esa 10-15 gektargacha yetadi. (2-rasm)




2-rasm Tajriba va tahlil

Park hududlarining balansi “tabiiy” muhitlar komponentlari “suniylikdan” ustunligi taminlangan holda hozirgi vaqtda parklarni funktsional qismlarga bo’lishga ananaviy yondoshuv bilan bir qatorda boshqa anana ham rivojlanmoqda. Funktsional qismlarga bo’lish va hisob balansidan tashqari hududni landshaftning

sunij inshootlar bilan to'ldirganlik darajasi bo'yicha differentsiallash va quyidagi yirik qismlarni ajratish lozim:

a) **Park inshootlari to'plangan qism** – rekreatsion bosim 100 odamga hisob qilingan, yuqori darajada obodonlashtirilgan. Inshootlar, hiyobon va maydonlar bu yerda 30% gacha maydonni egallaydi;



3-rasm

Parkning funksional-rejalashtirish kompozitsiyalari: (3-rasm)

- a) - perimetral,
- b) - tugun-yaqinlashtirilgan,
- v) - o'qli,
- g) - tugun-uzoqlashtirilgan;
- d) - kompakt.

b) **ommaviy qatnov qismi** yuqorida ko'rsatilganga tutashgan – rekreatsion bosim 50-100 kishiga hisob qilingan, oddiy park darajasida obodonlashtirilgan. Bu yerda landshaftning suniy elementlari tabiiyga bo'ysundirilgan;

c) **tabiiy qism** – shahar muhitidan ajratilgan, obodonlashtirishning minimal darajasiga ega, bu yerda har qanday inshootlar iloji boricha qurilmaydi, 50 kishiga kam rekreatsion bosimga mo'ljallangan.

Parkning kichik o'lchamlarida – 10-50 gektar gacha maydonning chetiga joylashgan kompleks rekreatsion markazni tashkil etish eng ratsionaldir.

Parkning o'rta o'lchamlarida – 50-100 gacha uch-to'rt maxsus arkazlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Ularga tegishli funksional qismlar yondoshadi.

Yirik parklarda - 100-500 gacha bir nechta yirik kompleks markazlari tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu tavsiyalar taxminiydir va parkning ixcham tarxiga, uning bir xil atrofiga mo'ljallangan. Cho'ziq shaklli tarxda, hatto kichik parklarda xizmat ko'rsatishni yagona tugunda to'plash qiyin, bu yerda bir nechta tortilish fokuslari lozim bo'ladi. parkning tarxiy tarkibi quyidagi beshta inshootlarni joylashtirish tuzilmalaridan biri bo'yicha qurilgan funksional-rejalashtirish kompozitsiyalari berilgan.

Istirohat bog'lari tinch dam olish uchun mo'ljallanadi. Unda qiziqarli landshaft manzaralari, ko'p tarmoqli yo'laklar tuzilmasi, chiroyli daraxt va butalar guruhlar mavjud bo'lgan manzarali maydonlaridan ko'rish nuqtalari va gulzorlar, maysazorlar loyihalalanadi. Bunday bog'lar qiziqarli dam olish joylarida ko'p sonli skameykalar bilan jihozlanadi. Baland nuqtalarida besedkalar – **rotondalar** va keng ko'lamli tomosha qilish uchun ko'rish maydonchalari – **belgvederlar**


quriladi. Istirohat bog'larida suv havzalari, ko'prikchalar, hovuzlar va boshqa peyzaj parklariga xos landshaft elementlari loyihalanadi. Istirohat bog'larida haykallar va kichik arxitekturaviy shakllar ham muhim ahamiyatga ega. Haykaltaroshlik asarlarida odatda lirik mavzular aks etadi: afsonalar, ertaklar qahramonlari yashil fonga mutanosiblikda joylashtirilishi kerak. Istirohat bog'larida ko'proq favvoralar, hovuzlar, gulzorlar kompozitsiyasi, daraxt va butalar guruhi qo'llanilgan chim bilan uyg'unlikda kaskadlar loyihalanadi. parklarni kechki payt ham foydalanish imkoniyati bo'lishi uchun yaxshi yoritilishi kerak. Bazan parkning original kompozitsion yechimini yorug'lik va rang uyg'unligini namoyish etgan holda yoritish uchun dekorativ yoritgichlar qo'llaniladi.

Tarixiy parklar. O'tgan asrda paydo bo'lgan bunday parklar o'zida tarixiy – landshaft va me'moriy majmualarning ajralmas qismi saroy- muzeylarni mujassam etgan. Bu parklar tashrif buyuruvchilarga me'moriy yodgorliklarni, muzeylarda joylashgan ekspozitsiyalar, san'at asarlarini tanishtiruvchi vazifasini bajaradi.

Landshaft parklar. Tabiiy muhitlar kamayib borayotgan zamonaviy shahar sharoitida park qurilishida landshaft parklari yo'nalishi tobora keng tus olmoqda. Tabiiy parklardan farqli o'laroq, bunday parklar noqulay sharoitlarda joylashgan shahar yerlari yetishmovchiligi mavjud bo'lgan shahar ichi va tashqi hududlarda ham loyihalanishi mumkin. Landshaft parki qurilishida yetakchi o'rinni Yevropa davlatlari va Amerika egallaydi.

Memorial parklar xalq uchun xotira bo'lib qolgan buyuk tarixiy hodisalar sharafiga quriladi va o'zining monumental, tantanali xarakteri bilan boshqa maxsus parklardan ajralib turadi. Bu yerda bog'-park kompozitsiyasining barcha vositalari yodgorlikning g'oyasi va mazmunini ochib berishga yo'naltirilishi lozim. Bunday parklar tashqi ko'rinishining yetakchi chizig'i bo'lib monumental vositalardan keng foydalanish, aniq o'ylangan harakat grafigi, o'simliklarni asosan muntazam joylashtirish xizmat kiladi. Barcha xizmat ko'rsatish vositalarini markaziy

hududdan tashqarida loyihalash lozim. Bu yerda me'morialning tantanali tinchligini buzadigan kiosklar, ichimlik avtomatlari, transport aloqalari bo'lmasligi kerak. (4-rasm)



4-rasm Tajriba va tahlil

Bolalar parklari. Ularning asosiy vazifasi bolalarning faol dam olishini tashkil etish, jismoniy rivojlanishiga yordam berish, ularning sarguzashtlarga, ijodiy mashg'ulotlarga, tajribalarga bo'lgan intilishini qondirishdan iborat. Bolalar parki landshaftida tabiiy sharoit va hayvonot dunyosining xilma-xilligini, iloji boricha aks ettirmoq maqsadga muvofiqdir. Bolalar parklari uchun shaharning eng qulay va yaxshi ko'kalamzorlashtirilgan hududi ajratilishi lozim. Ularga yashil massivlar, bog'lar va o'yin maydonchalari beriladi. Katta shaharlarda bolalar parkin mustaqil park deb hisoblanadi. Markaziy bolalar parkining kattaligi 50 ga dan 300 ga gacha bo'lishi mumkin. Bu sharoitda xar xil yoshga kirgan bolalarga qiziqarli dam olish sharoitlarini yaratish mumkin. Masalan, Moskva shahrida «Strana chudes» nomli bolalar parki uchun juda qiziqarli zonalar yaratish uchun ko'p mutaxassislar takliflari kiritilgan.

Men o'z loyihamda 16 gektar joyni egallagan Erkin Vohidov istirohat bog'i hududini tashkil etish masalasini hal etganman. Loyiha ustida ishlash jarayonida ushbu hududni tashkil etuvchi mavjud bog' hududidagi barcha turdagi axoliga xizmat ko'rsatuvchi binolar va shaxobchalar ham mo'nan, ham jismonan eskirganligini hisobga olgan holda ulardan vos kechish masalasini qo'ydim. Men loyihalashtirgan istirohat bog'i uning yonida joylashgan asosiy Axmad Yassaviy nomli asosiy yo'l bilan uzviy bog'liqdir. Shu ikki qatlam uchun umumiy kichik jamoat dam olish bog'ini tashkil qilindi va ularni bog'lash maqsadida piyodalar o'tish ko'prigi loyihalandi. Bog' hududida turli xildagi atraksionlar iborat bo'lgan zamonaviy ko'gilochar o'yingohlari va boshqa xizmat ko'rsatish shahobchalari binolaridan foydalanildi. Binolar ochiq va yopiq kompozitsion muhitlarga moslangan bo'lib, ular turli o'ziga xos izolyatsiyalangan bo'lib, ekalogiyaga foyda keltirish maqsadida tabiiy o'simliklar ekish orqali havoni yanada tozalashga va ochiq havoda dam olishga xizmat qiladi. Bu ham bolalarni salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va madaniy dam olish jarayonini yaxshilanishiga ko'maklashadi. Asosan bog' infratuzilmasidan hosil bo'gan burchaklarda joylashgan xar-xil binolarning yahlitligini saqlashga ham yordam beradi. Turli xildagi straksion va landshaftlar va xizmat ko'rsatuvchi binolar loyihalangan bo'lib, ularning har xil savdo do'konlari, kichik kafelar va maishiy xizmat ko'rsatish shahobchalari mavjud. Bundan tashqari bino tomida ham yashil hudud tashkillashtirilgan. U yerda chiroyli manzaradan bahra olibgina qolmay, toza havoda miriqib dam olsa ham bo'ladi. Bundan tashqari har bir xizmat ko'rsatish shaxobchasi tomiga quyosh batareyalari o'rnatilgan bo'lib, ulardan olingan energiya shu binoda xizmat qolayotgan va dam olyatgan aholi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Markaz hududida esa favvoralar atrofida sayr qilish, o'tirib suhbat o'tkazish, muzqaymoq yeyish, salqin ichimliklar ichish, ro'likli konki, skeytlarda va velosipedlarda uchish, kolyaskada yosh bolalar bilan sayr qilish imkoniyati mavjud. Bog' hududi ko'kalamzorlashtiriladi. Buning uchun soya beruvchi va dekorativ daraxtlar mavsumiy gullaydigan butalar, qishin-yozin ma'lum bir ketma-

ketlikda gullaydigan anvoi gullar ekish rejalashtirilgan. Ushbu loyihada ko'zda tutilgan barcha yechimlar keyinchalik Marg'ilon shahridagi yangi qayta tamirlanish mo'jallangan Erkin Vohidov istirohat bog'I rekonstruksiya qilinayotgan yoki yangidan barpo etilayotgan barcha hududlari uchun loyihaviy taklif vazifasini bajarishi ham mumkin.

**XUDUDNI KO‘KALAMZORLASHTIRISH VA
OBODONLASHTIRISH
BO‘LIMI**

Rahbar:

Axmedov P.

Diplomant:

Jamoliddinov I.

Marg'ilon shahridagi yangi Erkin Vohidov nomli madaniyat va istiroxat bog'i loyihasiga obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari

1. Marg'ilon shahridagi yangi Erkin Vohidov nomli madaniyat va istiroxat bog'i hududini ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish

Erkin Vohidov nomli madaniyat va istiroxat tuzilmasini landshaft tashkil etilishi dam olish, jamoatchilikni bo'sh vaqti va turli darajadagi hududlarda dam olishni axoli uchun psixologik qulayligini hisobga olib rejalashtiriladi. Masalan, shaxsiy dam olish bog' hududida kichik maydonlarining tashkil etiladi (odatda bu yerda oila a'zolari va kichik yoshdagi bolalar kattalar dam oladi; Axoli, o'smirlar va kattalarning dam olishi jamoatchilik maydonini tashkil etiladi. Axoli dam olish va bo'sh vaqtini anashunday bog'larda o'kazishni Afzal ko'radi.

- Landshaft–rekreatsion fazolarning barcha elementlari istiroxat bog'larini qurilishi landshaft muhiti yaxlitligini shakllantirishda, dam olish, muloqot qilish va bo'sh vaqtni o'tkazish muhitning psixologik va fiziologik qulayligini ta'minlashda o'zaro bog'lovchi ahamiyatga ega bo'ladi. Muhitning qulay mikroiklimiy, sanitariya-gigienik va estetik tavsiyalarini yaratish muhim ahamiyatga ega. Bunda landshaftni tashkil etishda o'simliklarni to'g'ri tashkil etish yetakchi ahamiyatga ega bo'ladi.

- Aholining turli guruhlarining dam olishini ta'minlash uchun kichik yoshdagi bolalarning (0-4 yosh), maktabgacha yoshdagi bolalarning (5-7), kichik yoshdagi o'quvchilar (8-10 yosh), o'rta yoshdagi o'quvchilar (11-14 yosh), o'qiyotgan yoshlar (15-22 yosh), ishlayotgan yoshlar (23-35 yosh), mehnat qilish qobiliyatiga ega aholi (36-60 yosh) va nafaqaxo'rlar (60 va undan ortiq yosh) dam olishi hududlarini funksional zonalarga ajratishni ko'zda tutish zarur.

- Aholining har bir guruhi o'z vaqt byudjetiga ega turar joy tuzilmasi hududida dam olishning tarkibi va mazmuniga o'zining o'ziga xos talablarini qo'yadi:

- Taxminan 70% maktabgacha yoshdagi bolalar yakshanbadan boshqa kunlar maktab muassasalarida bo'lishadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nisbatan ham harakatchan bo'lishadi va odatda istirohat bog'larida sayr qilib yurishadi.

Ko'pincha ularni oiladagi katta yoshdagi kishilar kuzatib yurishadi, bu kattalar uchun o'yin maydonlarida yoki ular yonida dam olish joylari tashkil etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin maydonlari kichik shakllar to'plami bilan jihozlanishi kerak.

- Kichik va o'rta yoshdagi maktab o'quvchilari kunning ikkinchi yoki kechki yarmini istiroxat bog'larida vaqtichog'lik qilishni avzak ko'rishadi. Ular maktabgacha yoshdagi bolalarga nisbatan ancha harakatchan va mustaqil bo'lishadi.
- O'rta va katta yoshdagi maktab o'quvchilari kunning ko'p qismini maktablarda o'tkazishadi va vazifalarini bajarish uchun ko'p vaqt sarflashadi. Bu guruhdagi bolalar uchun hududning boshqa komponentlaridan ajratilgan asosan sport maydonlari barpo etilishi kerak.
- Kattalar va yoshlar ish kunlarini o'rtacha 10-11 soat turar joylaridan tashqarida o'tkazishadi (ish, o'qish, madaniy-maishiy va tomoshabop joylarga, stadionlar borish va parklarda dam olishni hohlashadi).
- Pensionerlar vaqtining ko'p qismini uy yaqinida o'tkazishadi. Ularning taxminan 20% maktabgacha yoshdagi bolalar bilan, 60% i esa bolalarsiz dam olishadi. Ular uchun uy yaqinida maydonchalar quriladi.
- Istiroxat bog'larini qurilishida har xil kompozitsion-fazoviy qurilmalar qo'llanilishi mumkin. Shuningdek bog' guruhlari, masalan, perimetral va chiziqli kompozitsion-fazoviy qurilmalar quriladigan va aloxida bog' hududlarning landshaftini tashkil etishi lozim.

Loyihalash tajribasi shuni ko'rsatadiki, turar joy hududlarida 1m²/ kishi hisobida sport maydonchalari joylashtirish mumkin emas. Faqatgina 0,7m²/ kishi hisobida joylashtirish mumkin. Qolgan maydonchalar yoki ularning katta qismini bevosita turar joy qurilishi hududidan tashqarida joylashtirish mumkin.

(5-6-7-8-9) rasmlar



5-rasm Landshaft loyihaviy taklifi



6-rasm Landshaft loyihaviy taklifi



7-rasm Landshaft loyihaviy taklifi



8-rasm Landshaft loyihaviy taklifi



9-rasm Landshaft loyihaviy taklifi

2. Marg'ilon shahridagi yangi Erkin Vohidov nomli madaniyat va istiroxat bog'i eksperimental mavze hududining tabiati, ekologik muammolari va uning yechimi.

Bugungi kunda Sputnik ushbu hududni ayanchli ahvolga tushib qolgan holdaligi, infratuzilmaning ishlamasligi, ko'kalamzor hududlarning mavjud emasligi va h.k. Shuningdek mahalliy aholi uchun madaniy va jismoniy hordiq chiqarish uchun yetarlicha rekreatsion zo'nalar tashkil etilmagan.

(10-11-12-13) rasmlar

Mavjud holat.



10-rasm mavjud holat



11-rasm mavjud holat



12-rasm mavjud holat



13-rasm mavjud holat

Marg'ilon shahridagi yangi Erkin Vohidov nomli madaniyat va istiroxat bog'i loyihalashtirilayotgan hudud 16 gektar maydonni egallaydi. Ushbu hudud menga taqsimlab berildi. Loyihadan asosiy maqsad ushbu hududni zamonaviy chetel tajribalaridan fodalangan holda yangi bog' park san'atini tashkil qilish va tabiatga uyg'unlashtirilgan holda yahlit kompozitsion yechim taklif etishdir.

Men o'z loyihamda 16 gektar joyni egallagan zamonaviy bog' hududini tashkil etish masalasini hal etganman. Loyiha ustida ishlash jarayonida ushbu hududni tashkil etuvchi mavjud bog'ni ham ma'nan, ham jismonan eskirganligini hisobga olgan holda ulardan vos kechish masalasini qo'ydim. Men loyihalashtirgan bog' uning yonida joylashgan asosiy yo'l bilan uzviy bog'liqdir. Shu bog' uchun umumiy bog' markazi tashkil qilindi va ularni zamonaviy talab darajasida axoliga xizmat ko'rsatish ob'ektlari loyihalandi. Mavze hududida 1,2 qavatlardan iborat bo'lgan xizmat ko'rsatish shaxobchalari va hudud mamuriy binolarida foydalanildi. Binolar ochiq terassalarga ega, ular gidroizolyatsiyalangan bo'lib, ekologiyaga foyda keltirish maqsadida tabiiy o'simliklar ekish orqali havoni yanada tozalashga va ochiq havoda dam olishga xizmat qiladi. Bu ham axoli va bolalarni salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ta'lim jarayonini yaxshilanishiga

ko'maklashadi. Terassalar asosan binolar burilganidan hosil bo'gan burchaklarda joylashgan bo'lib, binolarning yahlitligini saqlashga ham yordam beradi. Terassalar 2-qavattan boshlab loyihalangan bo'lib, uning ostida ya'ni 1-qavatlarda har xil savdo do'konlari, kichik kafelar va shahobchalari mavjud. Bundan tashqari bino tomida ham yashil hudud tashkillashtirilgan. U yerda chiroyli manzaradan bahra olibgina qolmay, toza havoda miriqib dam olsa ham bo'ladi.

Aholiga qulaylik yaratish maqsadida kichik jamoat markazi tashkil etilib, piyodalar harakati uchun mo'ljallangan yer usti yo'li ya'ni ko'priklari loyihalandi. Mazkur ko'priklari nafaqat piyodalar o'tishi uchun balki, unda o'tirib dam olish, atrofdagi chiroyli manzarani tamosha qilish imkoniyatini ham beradi. Shu maqsadda ko'priklari – platfo'rma sifatida loyihalaniib oddiy ko'priklardan kengligi bilan farq qiladi. Bundan tashqari ko'priklari gidroizolyatsiyalabgan bo'lib, unda yashil hudud tashkil etilgan. Markaz hududida esa favvoralar atrofida sayr qilish, o'tirib suhbat o'tkazish, muzqaymoq yeyish, salqin ichimliklar ichish, ro'likli konki, skeytlarda va velosipedlarda uchish, kolyaskada yosh bolalar bilan sayr qilish imkoniyati mavjud. avto egalari mashinalarini vaqtinchalik saqlashi uchun sharoitlar yaratilgan. Shuningdek mashinalarni bo'g'ning yoniga joylashtirish taklifini tavsiya etaman

Ushbu loyihada ko'zda tutilgan barcha yechimlar keyinchalik Marg'ilon shahrining rekonstruksiya qilinayotgan yoki yangidan barpo etilayotgan barcha hududlar uchun etalon vazifasini bajarishi ham mumkin.

QURILISH IQTISODIYOTI BO'LIMI

Rahbar:

Axmedov P.

Diplomant:

Jamoliddinov I.

Arhitektura va shaharsozlikka tegishli iqtisodiy strategiya vazifalarini bajarish uchun arhitektura va iqtisodiyotning sermahsul o'zaro hamkorligi o'ta muhim. Bu arhitektura va qurilishning kelajagi va uzoq muddatli rivojlanish dasturlarini asoslashda, ilmiy-tehnika progress yutuqlari va kapital mablag'larni amalga oshirishning eng rationally shakl va usullarini qidirishda obyektiv zarurdir. Harakatda bo'lgan "Arhitektura to'g'risidagi qonun"ni qayta ishlab chiqish zarurati tug'ilib, qayta ishlab chiqildi va shaharsozlik sohasi faoliyatini rivojlantirishda 2017 yil 4 aprelda O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi tasdiqlandi va amalga kiritildi.

O'tgan yillarda qurilish sohasida juda katta o'zgarishlar ro'yberdi. Shaharsozlik faoliyatini yanada takomillashtirish yo'lida Shaharsozlik kodeksi asosida bir qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilinib Davlat hokimiyati organlari va qumita oldigabir qancha vazifalar qo'yildi.

O'zbekistonda yuz berayotgan siyosiy va ma'naviy rivojlanish, jamiyatni demokratlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnika taraqqiyot mamlakatimizdagi shaharsozlik sohasida olib borilayotgan bunyodkorlik ishlarini jadal rivojlantirdi.

O'zbekiston shaharlarining zamonaviy rivojlanishi to'xtovsiz urbanizatsiya jarayonida amalga oshadi. Bu o'z navbatida jamiyat hayotining barcha jabhalarida ko'zga tashlanadi va shaharlar ahamiyatining o'sib borayotganidan dalolat beradi. Urbanizatsiyaning o'ziga xos tomoni bu, shahar aholisining katta va yirik shaharlarda to'planishidir. Va bu jarayonning natijasi – yashash muhitining yangisini shakllantirish va eskisini rekonstruktsiya qilish talabining oshishidir. Hududlarni arxitekturaviy-rejaviy tashkil etish masalasi, ulardagi tabiiy-ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechishda shaharsozlik uslublarini qo'llash zamonamizning dolzarb vazifasiga aylandi.

Shahar muhitiga rivojlanishning obyektiv qonunlariga bo'ysunadigan yangicha nigoh va munosabat talab etila boshlandi. Natijada bir qator hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari ishlab chiqilgan va qabul qilingan, hamda u

davlat shaharsozlik siyosatini mukammallashtirishga qaratilgan va unda faoliyatini davlat ta'minlab beruvchi ijtimoiy-ta'minlangan bloklari – bolalar maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar, sog'liqni saqlash muassasalari aniq ajratib ko'rsatilgan.

**XUDUDNI MUXANDISLIK
KOMUNIKATSIYALARI BO'YICHA YECHIMI
BO'LIMI**

Rahbar:

Axmedov P.

Diplomant:

Jamoliddinov I.

Hudud yetarli kommunikatsion sharoitlarga ega bo'lishi, unda suv ta'minoti, kanalizatsiya, energetika muammolarini tejimli yechish imkoniyatlari bo'lishi kerak. Tabiiyki, tanlangan hudud har doim bu talablarga javob beravermaydi, yuqorida keltirilgan omillarning bir qismi unda bo'lmasligi mumkin. Bu holda uni kam harajat ketkazib, qurilish uchun yaroqli holga keltirish kerak va suv ta'minoti, oqava suvlarni tozalash va boshqalar oqilona chegaralar doirasida bo'lishi lozim.

Shaharlarda muhandislik tarmoqlari – muhandislik kommunikatsiyalaridan, ularga hizmat qiluvchi inshootlardan va turli yordamchi qurilmalardan iborat murakkab tizimni tashkil qiladi. Muhandislik tarmoqlari yer osti va yer usti turlariga bo'linadi (o'z navbatida yer usti tarmoqlarini ikki xilga bo'lish mumkin: bevosita yer ustida joylashgan va yerdan ko'tarilgan holatda. Ba'zi hollarda yer ustida tarmoqlar joylashtiriladi. Biroq bu loyiha istiroxat bog'larida memoriy kompozitsiyani buzadi).

Shahar yer osti tarmoqlari shaharni muhandislik obodonlashtirishning asosiy elementlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shahar yer osti tarmoqlari shahar aholisini madaniy-maishiy muassasalarni, sanoat korxonalarining talabini qondirish uchun xizmat qiladi.

Muhandislik obodonlashtirish shaharsozlik ishlarining katta qismini tashkil qiladi. Shaharning bosh rejasini loyihalashda shahar hududini muhandislik tayyorlash va obodonlashtirish bo'yicha juda ko'p va o'ta muhim masalalar ko'ndalang bo'ladi, bular: vertikal rejalash va suvni qochirish; jarliqlar, ko'chkilli, suv bosadigan va botqoqli joylarni o'zlashtirish va obodonlashtirish, quruq-issiq mintaqalarda joylashgan shahar hududini suv bilan ta'minlash va sug'orish, zilzilaviy va doimiy muzliklar bilan qoplangan rayonlarni shahar qurilishi uchun o'zlashtirish; transport va piyodalar yo'llarni, avtomobil to'xtash joylari va xo'jalik maydonlarini joylashtirish; ko'kalamzorlar, dekorativ va sport ahamiyatiga ega kichik suv inshootlarini barpo etish; daryo va suv omborlari qirg'oqlarini obodonlashtirish; sport inshootlarini va kichik memoriy shakllarini qurish; ko'chalar, maydonlar va shaharning boshqa joylarini sunniy yoritish; yer osti kommunikatsiya tarmog'i va suv ta'minoti,

kanalizatsiya, elektr, issiqlik va gaz ta'minoti tizimining shahar rivojlanishi istiqbolini ko'zda tutgan holda uzluksiz ravishdagi faoliyati tushuniladi.

Suv ta'minoti tizimiga suvni manbadan oluvchi inshootlardan tortib, uni tozalash, zaxirada saqlash va iste'molchiga yetkazishgacha bo'lgan barcha inshootlar majmuasi kiradi. Suv ta'minoti tizimi bir qancha ko'rsatkichlar bilan turlanadi. Loyihalanayotgan hudud zamonaviy bog' hududi bo'lgani uchun u yerda, kichik maishiy xizmat ko'rsatish binolari, jamoat binolari, undan tashqari rekriatsion hudud ham birikib ketganligi sababli madaniy-ko'ngil ochar memoriy obyektlar qatorida kichik art obyektlar ham mavjuddir.

Sanitar-gigienik talablar Xizmat ko'rsatuvchi xonalarning meteosharoitini va mikro iqlimini sanitar-gigienik talablar reglamentlaydi:

1-Havo harorati;

2-Havoning nisbiy namligi;

Bog' hududida havo harakat tezligi meteosharoitdan tashqari yana quyidagilar reglamentlaydi 1-havoning tezligi, 2-ushbu hududni shovqun darajasi bezota qilmaydigan bo'lishi kerak 3-bir kishi uchun havoning sarfi SHNK asosida belgilanadi.

Insonning dam olish maskanida o'zini yaxshi his qilishi uchun obyektiv va subyektiv omillarga bog'liq holda bo'ladi. Ulardan asosiysi issiqlik va namlikning o'zaro almashinish sharoitidir. Bu sharoit har bir insonning o'z organizmiga bog'liq. Salomatlik holati asab tizimiga bajarayotgan ish kategoriyasiga, ish formasi, matoning turi va sifati, atrofdagi havoning harorati, bosimi va atrofdagi havoning harakatlanish tezligi ham bog'liqdir. Inson tanasi issiqlik chiqaruvchi yoki yutuvchi yuza orasidagi masofaga, uning o'lchami va haroratiga bog'liq. Inson o'zini yaxshi his qilishi uchun toza havo bilan nafas olishi muhim ahamiyatga egadir.

Hizmat ko'rsatuvchi zonada zonada jamoat, ma'muriy, maishiy imoratlardan iboratdir; 3 SHNK 2.04.05-91*. Doimiy yoki mavsumiy ish o'rinlari uchun ilova 2 SniP 2.04.05-91*.

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI BO'LIMI

Rahbar:

Axmedov P.

Diplomant:


Jamoliddinov I.

Mehnat havfsizligining zamonaviy qurilishdagi vazifasi ishchi va hizmatchilarning yashashi va mehnat jarayonida sog'liqni saqlash, ya'ni kasbiy kasaliklar, tasodifiy jarohatlanish kabi baxtsiz hodisalarni oldini olishdan hamda, tabiiy texnogen texnika va harakat havfsizligi sabablariga ko'ra ishchilarning sog'lig'ini, mehnat qobiliyatlarini saqlash, shikastlanish, nurlanish, avariya, yong'in va boshqa kasb kasalliklarini oldini olish va bu sohadagi qonunchilik hamda mehnat muhofazasiga bag'ishlangan boshqa me'yoriy hujjatlarni o'rgatishdan iboratdir.

Mehnat havfsizligi hizmatining asosiy vazifalari qurilish maydonlarida va uning bilan bo'liq bo'lgan ish jarayonlarida sodir bo'ladigan jarohatlanish va boshqa baxtsizliklarni keltirib chiqaradigan sabablarni bartaraf qilish va tashkilot ma'muriyatini ishchi va xizmatchilarga ish sharoitini yaxshilab berish, ustidan nazorat qilib turishi, fan va texnika yutuqlarini joriy qilish asosida mehnat havfsizligi va himoya vositalarini mutassil takomillashtirish, qurilishda mehnat madaniyatini oshirish, baxtsizliklarni oldini olishga qaratilgan tashkiliy va texnik, hamda sanitariya tadbirlarini ishlab chiqarish, ularni joriy qilish va hokozolardan iboratdir.

Yong'in xavfsizligi.

Yong'indan asosiy himoya bu loyihani va loyihada qo'llanilgan qurilish ashyolarini to'g'ri tanlanganligidan iboratdir. Bog' hududini yong'in havfsizligi choralarini ishlab chiqdim. Asosiy o't o'chirish quroli suv bo'lganligi uchun, o't o'chirish bo'limlarini joylashish radiusi ham hisobga oldim. (14-rasm)



14-rasm Suv olish gidrantlari

Sprinkler tizimining umumiy ko'rinishi.

Yong'inni tez bartaraf etish uchun sprinklerli avtomatik tizimni taklif etdim. Standart sprinkler eruvchan ventil ko'rinishda bo'lib, yong'in paytida ventil teshigi erishi natijasida yuqori bosim ostidagi suv yong'inni o'chiradi. Sprinklerlarni 3-4 metr masofa bilan o'rnatiladi. Bog'hududini sprinkler tizimi asosan chiqindi quvirlarda joylashtirish tavsiya etiladi.

Sprinkler tizimi iqtisodiy jihatidan tejamkor hisoblanadi. Yong'in paytida yong'in havfsizligi hodimlari kelgunlariga qadar olov otashini so'ndirib turadi, ya'ni zararni minimallashtiradi. Ya'na uni har bir obyektga individual holda hisoblab, analiz qilgan holda tavsiya etiladi. Yoki birlashtirilgan sprinkler tizimi va mahalliy o't o'chirish asboblari bilan foydalanish mumkindir.

O't o'chirish gidrantlari va o't o'chirgichlar.

Har bitta podyezdning kirish qismida yong'inga qarshi qutilarni o'rnatishni taklif etdim. qavatlarida maishiy - xizmat do'konlari bo'lmaganda, birinchi qavatning kirish qismiga mahalliy o't o'chirish qutilarini o'rnatdim.

Binodan chiqishning asosiy eshigini ham, yong'in havfsizligi me'yorlariga binoan tashqariga ochiladigan eni 1.4metrli, umumiy og'rligi yong'in paytida erkin ochish mumkin bo'lgan metall va yog'och aralashgan eshiklari loyihaladim. Eshiklarda ochilmaydigan framugalar ham ko'zda tutilgan. Binolarda yong'in chiqish havfini va undan zararlanish miqdorini minimal darajaga yetkazishga harakat qildim. Zinapoyalarda 1.4x0.75 metr o'lchamdagi derazalarni loyihada taklif etdim. Ular qavatdagi zararli hidlarni tashqi havo bilan almashtirib, zinapoyalarda mikroiklim yaratadi. Qish va o'tish mavsumlarida konditsiya jihozlari bu vazifani bajaradi.

Evakuatsiya yo'llari.

Malakaviy bitiruv ishida taklif etilgan Qurilish jarayonida yong'in havfi paydo bo'lgan vaziyat uchun evakuatsiya yo'li ishlab chiqdim. Undan tashqari yonish havfi yuqori bo'lgan qurilish ashyolarini yonmaydigan yoki qiyin yonadigan ashyolardan qurilgan vaqtinchalik yoki doimiy omborlarda saqlanadi.

Har bir yo'laklarda yonida IIK (yong'in kranlari) ni loyihaladim. Ularni har 50 metr oraliqda joylashtirdim. konditsiya va sprinkler tizimini loyihaladim.

**XUDUDNI ARXITEKTURA LOYIHAVIY
TASHKIL ETISHDA ATROH-MUHIT
MUHAFAZASI BO'LIMI**

Rahbar:

Axmedov P.

Diplomant:

Jamoliddinov I.

Qurilishda mehnat sanitariyasi va gigienasi - Istirohat bog'larining asosiy vazifalaridan biri – aholi maroqli dam olishi uchun qulay sanitariya-gigienik haroitlarni ta'minlashdir.

Bu vazifa juda ko'plab ushbu hududdagi jarayonlar bilan, jumladan, bog'ning sanitariya obodonchiligi va tuproq, suv, havo va ariqlarning tozaligi, shuningdek istirohat bog'i hududining tozaligini saqlash yo'llari bilan hal qilinadi. Bog'ning sanitariya obodonchiligida bog' hududlarini tozalash va yig'ishtirish jiddiy ahamiyatga egadir. Marg'ilon shahri uchun mo'ljallangan Erkin Vixidov nomli madaniyat va istirohat bog'i QMQ va SHNQ da ko'rsatilgan me'yorlardan chiqmagan holda. Bituruv loyihamning mavzusi "Farg'ona viloyati Marg'ilon shahridagi Erkin Vohidov mavjud istiroxat bog'ini qayta me'moriy va qurilishini rejalashtirish" bo'lib, unda 16 gektarli bog' hududini umumiy tuzilmasini loyihaladim, bu joyda bog' mamuriyat binolari, axoliga xizmat ko'rsatish turli xildagi kichik yopiq va ochiq muhitli kefe va boshqa ko'ngilochar binolari rekriatsiya zo'nalarga bo'ldim.

Bosh tarx bo'yicha loyihalalanayotgan bog' shamol yo'nalishi va quyosh nurining yo'nalishiga qarab loyihalandi.

QMQ 2.01.03 – 96 ga asosanib 100 yilda 1 marta 7 ball ga teng yer silkinishlari kuzatiladi. Yerning muzash qatlami 0.5 m ga teng.

Qurilish jarayonida barcha sanitariya - gigiena talablariga javob beradigan qilib loyihaladim. Qurilish paytida quruvchilar dam olish zonalari, bino sanuzellar, tez alangalanuvchi qurilish ashyolarini alohida omborlarda saqlanishi. Qurilish mavsumiga mos ravishda maxsus ish kiyimlarini tavsiya etdim. Vaqtinchalik suv, kanalizatsiya quvurlari, elektr bilan ta'minladim. Qurilish mavsumiga qarab ikki yoki uch smenada ishlash uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Undan tashqari tez tibbiy yordam ko'rsatish punktini ham hisobga oldim. Qurilish zo'nasidan chiqishda yirik avtoulavlarni g'ildiraklarini mahsus ishlov beribgina, qurilish zo'nasidan chiqarishni ham loyihamda taklif etdim.

Mehnat gigienasi – u ish jaroyaniga atrof muhitni ishlayotganlar organizimga ta'sirini o'rganadi va undan sanitar-gigienik hamda davolash-profilaktika choralar ko'rish maqsadida foydalaniladi. Bu ishlar ish joylarida sharoitini yanada yaxshilashga qaratilgan. Bu esa ishlab chiqarish jamoalarining ish qobiliyatini sog'lom va yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydi.

Qurilishda ishchilarning mehnat faoliyatini yaxshilash uchun kerakli shart-sharoitlar yaratilishi va har bir ishchi tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi kerak. Ular changli ishlarni bajarayotgan vaqtida og'iz va burunlariga resperatorlar, ko'zlarni zararlanishini oldini olish maqsadida himoya ko'z oynaklari taqishlari, qo'llariga esa maxsus himoya qo'lqoplarni kiyishlari kerak.

Loyihalashtirilayotgan hududimda shamol shimoliy sharq va janubiy sharq tomondan esadi. Loyihada axili dam olishi uchun qulay sharoit va shahar talablariga mos g'oya yaratishga harakat qildim. Rekratsiya zonasining bog' hududini manzarali daraxtlar ekilgan uzun aleya va ularga ulangan favvorali maydonlar loyihasini taklif ettim. Binolar ochiq terassalarga ega, ular gidroizolyatsiyalangan bo'lib, ekalogiyaga foyda keltirish maqsadida tabiiy o'simliklar ekish orqali havoni yanada tozalashga va ochiq havoda dam olishga xizmat qiladi. Bu ham bolalarni salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ta'lim jarayonini yaxshilanishiga ko'maklashadi.

Qurilish jarayonida mehnat xavfsizligi - Qurilish maydonida ish boshlashdan 3 oy oldin buyurtmachi tomonidan bosh pudrat tashkilotiga barcha qurilish loyihalari to'liq ishlangan holda taqdim etilgan. Bu loyihalar tarkibidagi ularning ajralmas qismi hisoblanuvchi qurilishni tashkil etish loyihalari bo'lmog'i shart va ularda xavfsizlikni ta'minlash masalalarini hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan holda to'liq aks ettirilgandir.

Mehnatni muhofaza etishda zarur bo'lgan chora tadbirlar loyihalash davrida ikki bosqichda hal etilgan.

Birinchi bosqich - loyihalash davrida qurilishni tashkil (QMQ) loyihasini tuzish, ya'ni qurilishdagi yalpi ishlar ketma-ketligini va umumiy havfsizlikni ta'minlovchi tadbirlardan iboratdir;

Ikkinchi bosqich - qurilish chog'ida surinkali davom etadigan ishlarni bajarish jarayonida havfsizlikni ta'minlaydigan ishni bajarish loyihasini tuzishdan iboratdir.

Mehnat havfsizligi dastlab loyihani tuzuvchi tashkilot tomonidan qurilishni tashkil etish loyihasida, bosh pudratchi tashkilot tomonidan esa ishni tashkil qilish loyihasida aks ettiriladi. Bu loyihalarda ko'riladigan jami masalalar uchta, ya'ni umummaydon xavfsizligi, tartibod jarayonidagi xavfsizlik va mahsus masalalardir. Umummaydon masalalari qurilish va bosh rejasida ko'rib, maydonni tanlash va mashina mexanizmlar uchun kirish va chiqish yo'llarini belgilash, ishchilarni belgilash, ishchilar va rahbar muhandislar uchun zarur bo'lgan barcha yordamchi inshoatlarni, ya'ni yechinib-kiyinish, ovqatlanish va yuvinish xonalari, sanitariya qoidalariga rioya qilingan holda joylashtiriladi. Vaqtinchalik foydalanish uchun elektr tarmog'i, issiq va sovuq suv, hamda oqava suv uzatgich tarmoqlari, aloqa va radio tarmoqlari kabi inshoatlarni aniq hisoblar asosida to'g'ri joylashtirishni o'z ichiga oladi.

Qurilish jarayonida ifodalanovchi ikkinchi masala tartibot va mehnat jarayoni haritalarida o'z yechimini topadi, unda ishchining salomatligini himoya qilish borasida aniq hisoblarga asoslangan va mahalliy ish sharoitlarini inobatga olgan muhandislik mulohazalari o'zini yagona aniq yechimini topgan bo'lishi lozim.

Uchinchi mahsus masalalar turkumini hal etishdan iborat bo'lib, mahalliy yer, iqlim va ekologik shart sharoitlaridan kelib chiqqan holda, quruvchi va atrof muhit uchun hatarsiz bo'lgan manbalardan foydalanib, havf-hatar manbalarini esa bartaraf qilinishiga qaratilgan. Ya'ni qurilish maydonidagi barcha kommunikatsiya, injenerlik jihozlarini mahalliy hokimiyat bilan kelishgan holda ko'chirish yoki vaqtinchalik to'xtatilish nazarda tutilgan.

Ishlarni rejali va havf – hatarsiz olib borilishi, bosh tarxdagi xavfsizlik tartiblari, mahalliy tadbirlarni qay darajada hal qilinganligiga va iqlim sharoitlari qanchalik to‘liq hisobga olinganligiga bevosita bog‘liqdir. Qurilish bosh tarxida mehnat muhofazasining texnikaviy va tashkiliy majmuasi hal qilinadi.

XULOSA

Bugungi kunda O'zbekistonda ko'p sohalarda islohotlar, xalq farovonligi yo'lida olib borilayotgan ishlar qatorida arxitektura va shaharsozlik sohasida olib borilayotgan ishlar ham diqqatga sazovordir. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 7-dekabrdagi "O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov tavalludining 80-yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarori ga muvofiq shaharsoz arxitektorlarni yanada mas'uliyat bilan Marg'ilon shahri xalq farovonligi yo'lida rivojlantirishga ruhlantirmoqda. Shularni inobatga olgan holda men ham bitiruv malakaviy ishim mavzusini "Farg'ona viloyati Marg'ilon shahridagi Erkin Vohidov mavjud istiroxat bog'ini qayta me'moriy va qurilishini rejalashtirish" deb tanladim. Diplom ishimni loyihalash jarayonida men hududni chuqur o'rgandim, mamlakatimiz va chet el zamonaviy tajribasidan foydalangan holda, o'z hududimda iqlim sharoitlariga mos, xalqimiz uchun ham an'anaviy ham zamonaviy bo'lgan zamonaviy ko'rkam va estetik jihatidan go'zal, dam olish markazini, hududlarini arxitektura rejaviy loyihaladim. Asosiy maqsad Marg'ilon shahrida yashovchi aholiga ham yashash uchun, ham farzandlarning ma'naviy –ma'rifiy komolga yetishi uchun, aholining dam olishi uchun qulay shart sharoitlar yaratishdan iborat bo'ldi. Men ushbu loyihamda buni uddasidan chiqdim deb o'ylayman. Kelgusida men yaratgan ushbu loyihada ko'zda tutilgan barcha yechimlar, xalqimizga manzur bo'ladi deb umid qilaman va Marg'ilon shahridagi Erkin Vohidov madani va istirohat dam olish maskani rekonstruksiya qilinayotgan yoki yangidan barpo etilayotgan barcha hududlari uchun etalon vazifasini bajaradi deb o'ylayman.

ILOVALAR.



(1-ilova). Holat tarxi.

Foydalanilgan adabyotlar.

1. Adilova L.A.Landshaft arxitekturasini. Toshkent, TASI, 2000.
2. Isamuhammedova D. U. "Shaharsozlik asoslari".
3. Isamuhammedova D. U. "Turar- joy tumani loyihasi"
4. Uralov. A. S., Adilova L. A., Nozilov D. A., Toshtemirov R. T. "Landshaft arxitekturasini" darslik : Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent 2014
5. Adilova L.A. "Landshaft arxitekturasining nazariyasi" Toshkent, 2015
6. Черепанов В. А. "Транспорт в планировке города" Москва, Стройиздат,
7. 1970 г.
8. "Shaharsozlik asoslari" Isamuhammedova D. U. Toshkent, 2014-yil
9. Гродзинский А.М. Аллелопатия растений и почвоутомление. Избр.труды Центрально-республиканско ботанического сада АН УССР. -Киев: Наук.думка, 1991. С.173-174.
- 10.А. И. Колесников – «Вертикальное озеленение». 1964й.
- 11.С. Я. Соколов, И. П. Замотаев – «Справочник по лекарственным растениям». Фитотерапия. 1987й.
- 12.Бакутис В.Э., Бутягин В.А., Лунц Л.Б. «Инженерное благоустройство городских территорий». Москва, Стройиздат, 1971 г.
- 13.Azimov X.A "Qurilishda mehnat havfsizligi" T-2003y.
- 14.QMQ 3.01.02-00 "Qurilishda havfsizlik texnikasi" Toshken-2005y.
- 15.SHNK 2.01.02-04 "Yong'in havfsizligi" Toshkent-2004y.
- 16.QMQ 2.07.02-96 "Insonlarni hayoti va faoliyati" Toshkent-1996y

Foydalanilgan internet saytlar:

1. www.uznature.uz
2. www.garden.ru
3. www.landshaft.ru
4. www.moysadik.ru